

NUTQ NUQSONLARI KESIMIDA FONOLOGORITMIK MASHQLARNI  
ADAPTATSIYALASH TAMOYILLARI

**Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti  
“Maxsus pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nutq nuqsonlari kesimida fonologoritmik mashqlarni adaptatsiyalash tamoyillarining mazmun-mohiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Fonologoritmika nutq, harakat va ritm elementlarini uyg‘unlashtirgan holda bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali logopedik metod sifatida yoritiladi. Shuningdek, fonologoritmik mashqlarni tashkil etishda individual yondashuv, differensial yondashuv, tizimlilik va izchillik hamda integrativlik tamoyillarining ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq nuqsonlari, fonologoritmika, logopedik korreksiya, individual yondashuv, differensial yondashuv, integrativ yondashuv, psixomotor rivojlanish, fonematik eshitish, logopedik ritmika.

**Аннотация.** В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируется сущность принципов адаптации фонологоритмических упражнений в разрезе речевых дефектов. Фонологорitmika рассматривается как эффективный логопедический метод, служащий развитию речевой деятельности у детей путем сочетания элементов речи, движения и ритма. Также раскрыто значение принципов индивидуального подхода, дифференцированного подхода, системности и последовательности, а также интегративности в организации фонологоритмических упражнений.

**Ключевые слова:** дефекты речи, фонологиорitmika, логопедическая коррекция, индивидуальный подход, дифференцированный подход, интегративный подход, психомоторное развитие, логопедическая ритмика.

**Abstract.** This article analyzes the essence of the principles of adapting phonological-rhythmic exercises in terms of speech defects from a scientific and pedagogical point of view. Phonologorhythmics is considered an effective speech therapy method that serves to develop speech activity in children through the combination of speech, movement, and rhythm elements. The importance of the principles of individual approach, differentiated approach, systematicity and consistency, and integrativity in the organization of phonological-rhythmic exercises has also been revealed.

**Keywords:** speech defects, phonological rhythmics, speech therapy correction, individual approach, differentiated approach, integrative approach, psychomotor development, speech therapy rhythmics.

**KIRISH**

Nutq insonning kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy faoliyatini ta’minlaydigan murakkab psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Bolalik davrida nutqning to’g’ri shakllanishi shaxsning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi hamda ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati uchun muhim omillardan biridir. Biroq ayrim bolalarda nutq apparati faoliyatidagi fiziologik yoki psixologik omillar natijasida nutq nuqsonlari kuzatiladi. Bunday holatlar dislaliya, dizartiya, alaliya, rinolaliya kabi turli nutq buzilishlari shaklida namoyon bo’lib, ularni bartaraf etish maxsus korreksion-pedagogik yondashuvlarni talab etadi.

Zamonaviy logopediya amaliyotida nutq nuqsonlarini korreksiya qilishda fonologoritmika muhim metodik vositalardan biri hisoblanadi. Fonologoritmika nutq, harakat va ritm elementlarini uyg'unlashtirgan holda bolalarda nutqiy faoliyatni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu metod artikulyatsion apparat faoliyatini rivojlantirish, fonematik eshitishni shakllantirish, motor koordinatsiyani takomillashtirish hamda nutqning ritmik tomonini me'yorlashtirishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fonologoritmik mashqlarni samarali qo'llash uchun ularni nutq nuqsonlari turlariga mos ravishda adaptatsiyalash muhim hisoblanadi. Chunki har bir nutq buzilishining o'ziga xos etiologiyasi, psixofiziologik xususiyatlari hamda namoyon bo'lish shakllari mavjud. Shu sababli fonologoritmik mashqlarni tashkil etishda muayyan pedagogik tamoyillarga amal qilish zarur.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Nutq nuqsonlarini o'rganish masalalari logopediya fanida keng yoritilgan. R.E.Levina nutq buzilishlarini murakkab psixolingvistik tizim sifatida talqin qilib, nutq rivojlanishidagi kamchiliklar markaziy asab tizimi faoliyati, artikulyatsion apparat va fonematik eshitish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. A. N. Kornev esa bolalarda nutq rivojlanishining neyropsixologik mexanizmlarini o'rganib, nutq buzilishlarining kelib chiqishida psixofiziologik omillarning muhim rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Logopedik ritmika metodikasini rivojlantirishda S.A.Mironovanning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Olim logopedik ritmikani nutq terapiyasining kompleks usuli sifatida baholab, unda nutq, harakat va musiqa elementlarini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. G.A.Volkova ham logopedik ritmikani nutq buzilishlarini korreksiya qilishdagi samaradorligini ko'rsatib, ritmik harakatlar nutq apparati faoliyatini faollashtirishini ilmiy asoslab bergan.

T.V.Axutina nutq rivojlanishining neyropsixologik asoslarini o'rganib, nutq buzilishlarini korreksiya qilish jarayonida sensor-motor tizimni rivojlantirish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv fonologoritmik mashqlarni qo'llashning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi, chunki ritmik harakatlar nutq va motor jarayonlarini o'zaro integratsiyalashga xizmat qiladi.

#### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari fonologoritmik mashqlarni adaptatsiyalash jarayonida muayyan pedagogik tamoyillarga amal qilish zarurligini ko'rsatdi. Avvalo, individual yondashuv tamoyili muhim metodik asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyilga ko'ra fonologoritmik mashg'ulotlar bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi, psixomotor holati hamda individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Chunki nutq nuqsonlari har bir bolada turlicha namoyon bo'lib, ularning korreksiyasi ham individual yondashuvni talab etadi. Shu sababli logopedik mashg'ulotlarda har bir bolaning nutqiy qiyinchiliklari, artikulyatsion apparat faoliyati hamda eshitish idroki darajasi inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonologoritmik mashqlarni adaptatsiyalashda differensial yondashuv tamoyili ham muhim o'rin egallaydi. Ushbu tamoyil nutq nuqsonlarining turlicha etiologiyasi va namoyon bo'lish xususiyatlariga mos ravishda mashg'ulot mazmunini tanlashni nazarda tutadi. Masalan, dislaliya bilan og'rikan bolalarda artikulyatsion apparat faoliyatini rivojlantirish va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar samarali hisoblanadi. Dizartiya holatlarida esa asosiy e'tibor nutq apparati mushaklari faoliyatini faollashtirish hamda harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan fonologoritmik mashqlarga qaratiladi. Bu esa korreksion jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fonologoritmik mashg'ulotlarni tashkil etishda tizimlilik va izchillik tamoyiliga amal qilish ham muhim metodik shartlardan biridir. Mazkur tamoyilga ko'ra mashg'ulotlar muntazam ravishda hamda bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi tarzda tashkil etilishi zarur. Dastlab sodda ritmik harakatlar va elementar nutqiy mashqlar bajarilib, keyinchalik ular murakkab nutqiy va motor faoliyat elementlari bilan boyitiladi. Bunday bosqichma-bosqich yondashuv bolalarda nutqiy ko'nikmalarni izchil shakllantirish hamda ularni mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, fonologoritmik mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda integrativ yondashuv tamoyili alohida ahamiyatga ega. Mazkur tamoyilga ko'ra mashg'ulotlar nutq, harakat va musiqa elementlarini uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladi. Bunday integratsiya bolalarda ritmik sezgi, fonematik eshitish qobiliyati, motor koordinatsiya hamda nutqiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, nutq va harakatning o'zaro uyg'unligi markaziy asab tizimining faoliyatini faollashtiradi hamda nutq apparati faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, yuqorida qayd etilgan pedagogik tamoyillar asosida tashkil etilgan fonologoritmik mashg'ulotlar bolalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi, fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantiradi hamda nutq korreksiyasi jarayonining samaradorligini yaxshilaydi. Shu bois fonologoritmik mashqlarni nutq nuqsonlari kesimida moslashtirishda individual, differensial, tizimli va integrativ yondashuv tamoyillariga amal qilish logopedik korreksion ishlarning muhim metodik asoslaridan biri hisoblanadi.

#### **XULOSA**

O'rganilgan ilmiy manbalar va o'tkazilgan tahlillar nutq nuqsonlari kesimida fonologoritmik mashqlarni adaptatsiyalash logopedik korreksion ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatdi. Fonologoritmik mashqlar nutq, harakat va ritm elementlarini uyg'unlashtirgan holda bolalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra fonologoritmik mashqlarni samarali tashkil etish uchun individual yondashuv, differensial yondashuv, tizimlilik hamda integrativlik tamoyillariga amal qilish zarur. Ushbu tamoyillar logopedik mashg'ulotlarning metodik asosini tashkil etadi va ularning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, fonologoritmik mashqlar bolalarning psixomotor rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, fonematik eshitishni rivojlantiradi hamda nutq apparati faoliyatini faollashtiradi. Shu sababli fonologoritmika nutq nuqsonlarini korreksiya qilishda samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Nutq nuqsonlari kesimida fonologoritmik mashqlarni adaptatsiyalash tamoyillarini ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish logopedik korreksion jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.Y. Ayupova. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007, 2011-y.
2. Ayupova M. Yu., X.M. Po'latova. Logopedik ritmika. Darslik. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
3. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya. Jizzax.: "Ruhshona servis", 2021
4. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya. Ye. Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologikpedagogik, logopedik tekshirish. – T.: 2014
5. Muzaffarova, X. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarni o'yinlar asosida tashkillashtirish. Scienceweb academic papers collection. 2021.